

**BO'LAJAK OFITSERLARNING KASBIY MULOQOT MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILI**

Norqulov Akbar Farxodovich

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Markaziy harbiy
okrug fakulteti Sikl boshlig'i, podpolkovnik*

*Начальник цикла факультета Центрального военного округа Университета
военной безопасности и обороны Республики Узбекистана, подполковник*

*Head of the Cycle, Faculty of the Central Military District of the University of Military
Security and Defense Republic of Uzbekistan, Lieutenant Colonel*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bo'lajak ofitserlarning kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishda pedagogik omillarning o'rni yoritilgan. Harbiy ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini shakllantirish bo'lajak ofitserlarning rahbarlik salohiyatini, ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini va kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada kasbiy muloqotning mazmuni, pedagogik ta'sir vositalari, samarali ta'lim texnologiyalari va tarbiyaviy yondashuvlar asosida amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak ofitser, kasbiy muloqot, muloqot madaniyati, harbiy ta'lim, pedagogik omillar, kommunikativ kompetensiya, tarbiyaviy yondashuv, ta'lim texnologiyalari, rahbarlik ko'nikmalari.

ANNOTATSIYA: В данной статье рассматривается роль педагогических факторов в развитии культуры профессионального общения будущих офицеров. Формирование коммуникативной культуры в процессе военного образования способствует развитию лидерских качеств, навыков социального взаимодействия и профессиональной готовности курсантов. В работе раскрыто содержание профессионального общения, рассмотрены педагогические средства воздействия, эффективные образовательные технологии и воспитательные подходы, предложены практические рекомендации.

ANNOTATION: This article explores the pedagogical factors involved in developing the professional communication culture of future officers. Building communication culture within military education plays a crucial role in enhancing leadership abilities, social cooperation skills, and professional readiness. The paper defines the concept of professional communication, discusses pedagogical tools, effective teaching technologies, and educational approaches, and offers practical recommendations for implementation in military training environments.

KIRISH

Zamonaviy harbiy ta'lim tizimi harbiy xizmatchilarni nafaqat jismoniy va nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularning kasbiy muloqot ko'nikmalarini ham shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak ofitserlarning kasbiy muloqot madaniyati – ularning yetakchilik salohiyati, boshqaruv qobiliyati hamda jangovar vaziyatlarda samarali aloqa o'rnatish olishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu yo'nalishda pedagogik yondashuvlar, ta'lim texnologiyalari va metodlarning takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak ofitserlar o'z xizmat faoliyatida turli darajadagi harbiy xizmatchilar, rahbarlar hamda fuqarolik vakillari bilan doimiy muloqotda bo'lishadi. Ularning fikrni aniq yetkazish, boshqalarni tushunish va ijtimoiy-huquqiy normalarga asoslangan professional muloqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish harbiy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

Mazkur maqolada bo'lajak ofitserlarning kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishda pedagogik omillarning tutgan o'rni, samarali yondashuvlar va ilg'or tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonda o'qituvchi va tarbiyachining roli, o'quv metodikalarining mosligi, axloqiy va psixologik yondashuvlar asosida kasbiy muloqotga tayyorlash imkoniyatlari ochib beriladi.

Bo'lajak ofitserlarning kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik omili

Oliy harbiy ta'lim muassalaridagi pedagogik jarayonlar va mavjud yondashuvlarni o'rganish, tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, harbiy ta'lim muassalarida bo'lajak ofitserlarning kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirish muammosi o'ta dolzarb bo'lib, bo'lajak ofitserlarning muayyan darajada muomala, muloqot madaniyati ko'nikmalariga egalliklari aniqlandi. Kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirish bo'lajak ofitserlarni tayyorlashda asosiy vazifalardan biriga aylanishi lozim. Bo'lajak ofitserlarning kasbiy muloqot madaniyati kasbiy faoliyat jarayonida alohida pedagogik qimmatga ega. Chunki bo'lajak ofitserlar pedagogning muomala, muloqot madaniyatiga taqlid qilib undan ibrat oladilar. O'qituvchining namunali muomala, muloqot odobi esa atrofdagilarga pozitiv kayfiyat, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bo'lajak ofitser uchun kasbiy muloqot madaniyatini egallash katta ahamiyatga ega bo'lib, bu nutq orqali muloqot o'rnatish imkonini beradi. Ushbu jarayonda bo'lajak ofitserlarning o'zi ham rivojlanadi, uning kognitiv ko'nikmalarini egallash va mustaqil fikrlash imkoniyatlari kengayadi. Pedagogning muloqot madaniyati bo'lajak ofitserlarni har tomonlama rivojlantirish, ularni kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim vositasi hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi kabi ko'p funksiyali harbiy ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanib quriladi:

tizimlilik – obyektning yaxlitligini oshkor etishga qaratilgan, uning mexanizmlarini himoya qiluvchi murakkab obyektning bir necha aloqalarini hosil qilish va ularning yagona qonuniyat asosida olib borish;

yaxlitlik – muhitdan obyektning nisbiy muxtoriyati, mustaqilligi ichki birligini aks ettiradi;

subyektivlik – bo'lajak ofitserdan o'z qobiliyati nuqtai nazaridan o'z faoliyatining strategiyasi bo'lishni, maqsadni qo'yish va rostlashni, sabablardan xabardor bo'lish, faoliyatni amalga oshirish va ularni mo'ljallab bo'yicha baholashni o'z ichiga oladi;

integrativlik – hodisalar, qismlar, elementlarni bir butun (tartibli va tuzilmaviy)ga birlashtirishni taqdim etadi;

– diversifikatsiyalash – ta'lim vositalarining turlari, xizmatlari turlarini kengaytirish yangi faoliyatni rejalashtirishni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak ofitser holatining o'zgarishi mashg'ulotlarning maqsadiga: uning bilimi, ko'nikmalari, malakalari, fikrlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatiga bog'liq⁵.

Shu sababli, o'qitishning umumiy vazifalariga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Ushbu aniqlik maqsadlari asosini bizga ma'lum bo'lgan B.Blum taksonomiyasi tashkil yetadi⁶.

Bo'lajak ofitserni tayyorlash jarayonida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish tizimi quyidagi pedagogik shartlardan tashkil topgan:

ta'lim maqsadlarini tashhishtashda;

aks aloqani doimiy amalga oshirishda;

o'quv jarayonida kafolatli natijaga yerishish uchun harbiy-amaliy ish tartibini maqsadli yo'naltirish va tashkil yetishda;

yaxlit o'quv siklini takrorlash amalga oshirilganda yanada samarali bo'ladi.

Ushbu shartlar bir vaqtning o'zida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun topshiriqlar tizimi sifatida oliy harbiy ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish va shu bilan birga ta'lim maqsadlariga yerishish samaradorligini oshirishi shartlari hamdir.

Bo'lajak ofitserlarda kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonida pedagogik nazariya va amaliyotdan foydalanish quyidagilarga bog'liq:

bo'lajak ofitserning pedagogik jarayonda pozitsiyasini ta'minlash;

bo'lajak ofitser shaxsini rivojlantirish va o'zini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

bo'lajak ofitserlarning bilim qobiliyatini rivojlantirish;

bo'lajak ofitserlarning o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlarini ochish va ishga tushirish;

⁵ Яковлева Н.О. Педагогическое проектирование инновационных образовательных систем: монография. Челябинск: Изд. ЧТИ. 2008.-279 с

⁶ Блауберг И.В. Становление и сущность системного подхода. - М.: Наука, 1993. - 270 с

ta'lim sifatini oshirish va bilimlarning rasmiyligini yengib o'tish.

Shu jihatdan bo'lajak ofitserlarning kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish pedagogik jarayonning ustuvor maqsadlaridan biriga aylandi. Zamonaviy ofitser shaxsiga qo'yilayotgan talablar uning nutqini va muomala madaniyatini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bo'lajak ofitser yetuk, ijtimoiy jihatdan safarbarlik ko'rsatishga tayyor, ishchan hamda kasbiy nuqtai nazardan faol shaxs sifatida namoyon bo'lishi talab qilinmoqda.

Ta'lim jarayonida pedagog bo'lajak ofitserlarda o'rganilayotgan sohada kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi uchun ushbu soha tilini bilishi zarur. Buning uchun harbiy pedagogdan bo'lajak ofitserlar o'rganayotgan soha o'quv materiallarini tuzishda maxsus terminlardan foydalanish, sohaga oid qonunchilik tili va maxsus adabiyotlarni o'rganish, sohaning rasmiy ish hujjatlari va ularning xususiyatlarini yaxshi bilish talab qilinadi. Bu, ayniqsa, mutaxassislik tiliga tegishli. "Mutaxassislik (ixtisoslik) tili – umumxalq tilining o'zi, faqat u inson faoliyatining u yoki bu sohasi doirasi bilan chegaralangan bo'ladi"⁷. Biroq, bugungi kunga kelib bu chegaralarni avvalgidek qat'iy belgilab bo'lmaydi, chunki ixtisosliklarning turlari kundan kunga qanchalik ko'payib borayotgan bo'lsa, ularning kasbiy muloqot tili ham jadal rivojlanmoqda.

Pedagogikada muloqot pedagog va bo'lajak ofitserlarning o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi; muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;

o'qituvchi va bo'lajak ofitser munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi;

o'qituvchining bo'lajak ofitserlarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;

muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;

⁷ Барышева И.В. К вопросу о лексико-синтаксических конструкциях в языке специальности // Функциональная стилистика и лингводидактика. – Москва, 1988. Изд. Моск. ун-та. – 158 с.

noto'g'ri pedagogik muloqotdan bo'lajak ofitserlarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

O'qituvchining bo'lajak ofitserlar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;

bo'lajak ofitserlarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;

bo'lajak ofitserlarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;

bo'lajak ofitserlarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish.

Bo'lajak ofitserlarning turli vaziyatlarda kasbiy muloqotni amalga oshirish layoqatini rivojlantirish ta'limining bosh maqsadi bo'lishi kerak. Shu bois, oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning og'zaki va yozma monologik va dialogik nutqini muayyan izchillikda rivojlantirib borishga qaratilgan tizim ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda maxsus matnlar va ish hujjatlari, ular bilan ishlashga qaratilgan topshiriqlar va mashqlar tizimini, jumladan, kundalik rasmiy muloqot ko'nikmalari hamda muammoli vaziyatlarni muloqot vositalari yordamida hal qilishga o'rgatadigan turli metodlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash bo'lajak ofitserlarni kasbiy muloqot yuritishga o'rgatish jarayonini takomillashtiradi. Bunday yondashuv oliy harbiy ta'lim muassasalari uchun tuziladigan o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari yetakchi o'rin tutishi kerak.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ofitserlarning kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirish harbiy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Muloqot madaniyatining yuksak darajada rivojlanishi ofitserlarning boshqaruv faoliyatida, jamoada ijobiy muhit yaratishda va samarali rahbarlikda muhim rol o'ynaydi. Pedagogik omillar, jumladan, zamonaviy ta'lim metodlari, tarbiyaviy ishlar, interaktiv mashg'ulotlar va shaxsiy namuna orqali bu ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin. Mazkur maqolada taqdim etilgan nazariy va amaliy tavsiyalar bo'lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, muloqot madaniyatini rivojlantirish harbiy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimiy ilmiy-amaliy e'tiborni talab etadi.